

# Bosh rejani tayyorlash (topoxarita bilan birga) ishlarini bajarish uchun

## № 8 - sonli shartnoma

Buxoro shahri

11.08.2022 yil

“Buxoro kichik sanoat zonalari direktsiyasi» davlat muassasasi kelgusi o‘rinlarda «Buyurtmachi» deb atalib Nizomga asosan ish yurituvchi direktsiya direktori B.X.Berdiyev bir tomonidan "Real Max Projekt" MCHJ keyingi o‘rinlarda «Bajaruvchi» deb atalib hamda Nizom asosida ish yurituvchi nomidan rahbar U.Safarov ikkinchi tomonidan mazkur loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash bo‘yicha shartnoma tuzdilar:

### 1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. “Buxoro kichik sanoat zonalari direktsiyasi» davlat muassasasining 2022 yil 8 avgustdagi № 125471 - sonli elektron bayonnomasiga ko‘ra «**Kogon tuman Mustaqillik MFY Mustaqillik-1 kichik sanoat zonasasi**» ob’ekti bo‘yicha bosh rejani (topoxarita bilan birga) ishlab chiqishni Bajaruvchi o‘z zimmasiga oladi.

1.2. Buyurtmachi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun topshiriq berish, loyiha-smeta hujjatlarini tuzish uchun zarur bo‘lgan dastlabki ma'lumotlarni berish, bajarilgan ishlarni qabul qilib olish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

1.3. Bajaruvchi loyiha-smeta hujjatlarini amaldagi tartib-qoidalar va me'yorlarga rioya etgan holda ishlab chiqadi.

1.4. Bajariladigan ishlar tartibi, amalga oshirish muddatlari quyidagi tartibda:

- bajariladigan ishlar muddatining kalendar rejasiga 1-ilovaga muvofiq;
- asoslashtirilgan kelishuv bayonnomasi 2- ilovaga muvofiq;
- loyiha ishlarni bajarish smetasi – 3 ilova muvofiq belgilanadi.

Ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

### 2. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

2.1. Buyurtmachining majburiyatları:

2.2. Buyurtmachi shartnomada ko‘zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to‘lojni amalga oshirish.

2.3. Tayyor bo‘lgan loyiha-smeta amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ravishda qabul qilib olishni ta'minlash majburiyatini oladi.

2.5. Bajaruvchining majburiyatları:

2.6. Bajaruvchi ishlarni texnik topshiriq va kelishilgan grafik asosida o‘z vaqtida sifatli bajarishni, Buyurtmachi bilan bajarilgan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishish;

2.7. Ob'ektning qurilish-montaj jarayonida mualliflik nazoratini olib borish ishlari amalga oshirishi shart;

2.8. Ushbu shartnoma bo‘yicha Bajaruvchi o‘z majburiyatlarini sifatsiz bajarsa, bir haftadan oshmagan muddatda, talab qilingan sifat darajasida o‘z hisobidan qaytadan bajarish majburiyatini oladi.

### 3. ISHLARNING TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI

3.1. Quyidagi shartlarning to‘liq amalga oshirilganda taraflar imzolangan shartnoma majburiyatlarning bajarilishi boshlangan hisoblanadi.

3.2. Ishlar tugagandan so‘ng Bajaruvchi buyurtmachiga ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan 3 nusxada loyiha-smeta hujjatlar to‘plamini topshiradi.

3.3. Buyurtmachi ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergen holda zarur bo‘lgan qo‘sishma ishlarning ro‘yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko‘rsatgan holda, ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

3.4. Agar ishlarni bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to‘xtatish bir-birini xabardor qilishi va 15 ish kunida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqishi shart. Ishlarning to‘xtalishi tomonlar uchun O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko‘zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

3.5. Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko‘zda tutilgan ishlarni to‘xtatish to‘g‘risida yozma xabar bergen vaqt o‘zaro hisob-kitob qilish vaqtি hisoblanadi.

#### 4. SHARTNOMA BAHOSI VA TO‘LOV TARTIBI

4.1. Shartnoma bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlarning bahosi qo‘sishimcha qiymat solig‘i bilan - **57 346 000** (Ellik yetti million uch yuz qirq olti ming) so‘mni tashkil etadi.

4.2. «Buyurtmachi» shartnoma imzolanganidan so‘ng shartnoma bahosining 30 % miqdorida bo‘nak (avans) to‘lovini amalga oshiradi. Qolgan 70% to‘lov bajarilgan ishlarni tasdiqlovchi hujjat (dalolatnomaga) asosan to‘lovni amalga oshirilishini ma‘lum qilamiz.

4.3. Ishlar kiymati uzil-kesil xisoblanadi va keyinchalik kayta kurib chikilishi mumkin emas, kuyidagi xollar bundan mustasno:

- ishlar qiymati ko‘paytirishga yengib bo‘lmaydigan ya’ni (fors-major) holatlari sabab bo‘lganda;
- ishlar Buyurtmachi tomonidan o‘zgartirilganda.

#### 5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Ushbu shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni taraflar bajarmaganda mazkur shartnomaning amaldagi talablari va O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlariga muvofiq, shuningdek shaharsozlik normalari va qoidalariga (ShNK 1.03.01-08) muvofiqligi yuzasidan javob beradi.

5.2. Bajaruvchi loyiha-smeta hujjatlaridagi kamchiliklar uchun qurilish loyiha-smeta hujjatlarini belgilangan tartibda tasdiqlangunga qadar javob beradi. Loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda Bajaruvchi Buyurtmachining talabi bilan loyiha-smeta hujjatlarini bepul qayta ishlab chiqadi.

5.3. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o‘zgartirishlar va qo‘sishimchalar kiritilishi mumkin.

5.4. Mazkur shartnoma bo‘yicha nizo kelib chiqqan hollarda, tomonlar kelishuviga erishmagan taqdirda, qonunlarda belgilangan tartibda va iqtisodiy sudga murojaat qilishga haqlidir.

5.5. Buyurtmachi tomonidan dastlabki to‘lov va ishlarni topshirilganda shartlashilgan haqi kechiktirilgan har bir kun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,01 foizi miqdorida Bajaruvchiga penya to‘laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatining 10 foizidan oshmasligi lozim.

5.6. Bajaruvchi tomonidan smeta hujjatlarini tayyorlash o‘z vaqtida bajarilmay majburiyatlar buzilgan bo‘lsa Bajaruvchi Buyurtmachiga muddati o‘tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,01 foizi miqdorida penya to‘laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko‘rsatilmagan xizmatlar qiymatining 10 foizidan oshmasligi lozim.

5.7. Shartnoma «Bajaruvchi»ning tashabbusi bilan bekor qilinganda, shartnoma bekor qilingunga qadar bajarilgan ishlar uchun to‘langan mablag‘ «Bajaruvchi»ga qaytarilmaydi.

5.8. Shartnoma muddatidan oldin bekor qilish taklifini bildirgan taraf 10 kun oldin muddatda ikkinchi tarafni xabardor qilishi lozim. Bunda taraflar o‘rtasida haqiqatda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha belgilangan hujjatlar asosida to‘liq hisob-kitob qilingan holda amalga oshiriladi. Bajaruvchining bajarilgan ishlari hajmidan yoki moliyaviy hisob-kitoblardan aniqlangan kamchiliklar natijasida Buyurtmachiga qaytariladigan mablag‘lar va boshqa to‘lovlар bo‘yicha majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarmasa, Buyurtmachi ushbu mablag‘larni moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag‘lar hisobidan chegirib qolish huquqiga ega.

5.9. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

## 6. FORS-MAJOR VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI.

6.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmanan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmanan holatlar (engib bo'lmas kuch), epidemiya va h.k. oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar bo'lmaydi.

6.2. Ushbu shartnomaga bo'yicha yoki u bilan bog'liq holda taraflar o'rtaida kelib chiqadigan barcha nizolar va ziddiyatlar muzokalar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

6.3. Muzokalar olib borish yo'li bilan ziddiyatlarni hal qilishga erishilmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, uning shartlarini o'zgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyligi yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar Iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

## 7. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA UNGA QO'SHIMCHALAR KIRITISH.

7.1. Ushbu shartnomani imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

## 8. TOMONLARNING MANZILLI VA HISOB RAQAMLARI

### «BUYURTMACHI»

«Buxoro kichik sanoat zonalari direktsiyasi» DM

Manzil: Buxoro shahri, I.Karimov 10 uy  
tel. 221-55-07, 221-55-08  
H/r : 100 021 860 064 017 011 503 018 024  
INN 305844719 OKONX 83100 OKED 70220  
Buxoro viloyat G'aznachilik boshqarmasi  
H/r: 23402000300100001010  
Markaziy bank Toshkent shahri  
MFO 00014 INN 201122919

Direktsiya direktori

B.X.Berdiev

(muhr, imzo)

Huquqshunos:

L.Djumayev



### «ISH BAJARUVCHI»

"Real Max Proyekt" MCHJ


Manzil: Buxoro viloyati Gijduvon tumani  
Tel. 91-646-60-05  
H/r 20208 000 405 215 077 001  
Bank: Milliy bank G'ijduvon filiali  
MFO 00849 INN 307 344 397  
OKONX 66 000

Direktor

U.Safarov

(muhr, imzo)

Huquqshunos:



11.08.2022 yildagi  
№ 8 - sonli shartnomaga 1-ilova

Bajariladigan ishlarning kalendor  
REJASI

Ob'ektning nomlanishi	Bajarish muddati	
	Boshlanishi	Tugashi
«Kogon tuman Mustaqillik MFY Mustaqillik-1 kichik sanoat zonasi» ob'ekti bo'yicha bosh rejani (topoxarita bilan birga) ishlab chiqish.	11.08.2022 y	21.08.2022 y

«BUYURTMACHI»

«Buxoro kichik sanoat zonalari direktsiyasi»  
davlat muassasasi

  
B.Berdiyev

«ISH BAJARUVCHI»

"Real Max Proyekt" MCHJ

  
U.Safarov

11.08.2022 yildagi  
№ 8 - sonli shartnomaga 2-ilova

**Shartnomä bahosining kelishuv  
BAYON NOMASI**

Biz quyida imzo qo'yuvchilar: «**Kogon tuman Mustaqillik MFY Mustaqillik-1 kichik sanoat zonasasi**» ob'ekti bo'yicha bosh rejani (topoxarita bilan birga) ishlab chiqishni Buyurtmachining topshirig'iga asosan Bajaruvchi ishlab chiqishni o'z zimmasiga oladi.


Ishlab chiqish bo'yicha 11.08.2022 yildagi № 8 - sonli shartnomma baxosini qo'shimcha qiymat solig'i bilan - **57 346 000** (Ellik yetti million uch yuz qirq olti ming) so'mga teng deb kelishilganini tasdiqlaymiz.

Ushbu bayonnomma Buyurtmachi va Bajaruvchi o'rtaida o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun asos hisoblanadi.

**«BUYURTMACHI»**

**«Buxoro kichik sanoat zonalari direktsiyasi»**  
davlat muassasasi

B.Berdiyev



**«ISH BAJARUVCHI»**

**"Real Max Proyekt" MCHJ**

U.Safarov



11.08.2022 yildagi 8-sod  
shartnomaga 3-ilova

Asos:

O‘zbekiston Respublikasi Arxitektura va  
Qurilish Qo‘mitasining 28.10.2005 yildagi  
№60-soni farmoni asosidagi bayomnomalar

### LOYIHA ISHLARINI BAJARISH SMETASI

Loyiha ishlaring nomi: «Kogon tuman Mustaqillik MFY Mustaqillik-1 kichik sanoat zonasisi» ob‘ekti bo‘yicha bosh rejani (topoxarita bilan birga) ishlab chiqish.

Buyurtmachi: «Buxoro kichik sanoat zonalari direktsiyasi» davlat muassassi  
Bajaruvchi: "Real Max Proyekt" MCHJ

No/	Ish turi	O‘l.bir	Ish hajmi	Qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar	Summa	QQS 15%	Summa QQS bilan
1	Topoxarita M 1:500 (0,5)	Maydoni ga	10,0	O‘zbekiston Respublikasi Arxitektura va Qurilish Qo‘mitasining 28.10.2005 yildagi №60 sonli farmoni asosidagi bayomnomalar Murakkablik kategoriyasini K2=1ga x 567288 x 1,76	10 000 000	1 500 000	11 500 000
2	Loyiha-smeta hujjatlarini (bosh rejasimi ishlab chiqish) tayyorlash	Maydoni ga	10,0	Tasdiqlangan "loyiha-qidiruv ishlaring tannarxini" va qiymatini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq Farmon N 22 Davlat. com. ARCH tizimi. O‘zbekiston Respublikasining 2008 yil 10 noyabrdagi loyiylash ishlari bahosining smeta darajasi 2% ni tashkil qiladi.	39 866 087	5 979 913	14 652 500
<b>J A M I :</b>				<b>49 866 087</b>	<b>7 479 913</b>	<b>57 346 000</b>	

Naxsi so‘z bilan: QQS bilan: 57 346 000 (Eshki yetti million uch yuz qirq olti ming) so‘m.

"Real Max Proyekt"  
MCHJ direktori: -



U.Safarov